Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiqbollari” mavzusidagi ilmiy-amaliy...

Davlat moliyaviy nazorati organlarining vazifa va funksiyalari davlat mablag'larining shaffofligi, hisobdorligi va samarali boshqaruvini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy nazorat, firibgarlikni aniqlash va oldini olish, siyosatni ishlab chiqish, xavflarni baholash va salohiyatni oshirish orqali ushbu organlar samarali boshqaruvni ilgari surish va davlat moliyasining yaxlitligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

***Foydalanilgan adabiyotlar:***

*1.Malikov.T “Moliya”. O’quv qo’llanma-2018.*
*2. “O‘zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari”, 1997y. 1-12 sonlari, 1998y. 1-12 sonlari va ilovalari va 1999y. 1-12 sonlari va ilovalari, 2000y. 1-12 sonlari va ilovalari.*
*3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Moliya va narxlar ilmiy-tadqiqot instituti, T. : 1997 - 2000Y.*
*4.Ziyo-net.*
*5.Vikipediya.uz-internet sayti*

# DAVLAT BUDJETINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**To’raboyev Kambarali Kodirovich**
TDIU, Mutaxassislik kafedrasi assistenti
**Xolmirzayev Doniyorjon**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon Fakulteti SST ta’lim yonalishi talabasi

**Annotatsiya:***Ushbu maqolada davlat budjetining o’ziga xos xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar tahlil qilinib o’rganilib chiqildi,shuningdek,ushbu maqolada Davlat byudjeti muayyan mamlakatdagi ijtimoiyiqtisodiy munosabatlarni ham ifodalaydi. Jamiyatning iqtisodiy tuzumi, davlatning tabiati va faoliyatiga qarab davlat byudjeti mohiyati, uning daromadlari va xarajatlari xususiyati hamda tarkibi o’rganib chiqildi.*

***Kalit so’zlar:****Davlat budjeti,daromadlar,xarajatlar,iqtisodiy tuzum, iqtisodiy beqarorlik*

Davlat byudjeti — davlatning muayyan vaqt (odatda bir yil) uchun mo‘ljallangan pul daromadlari va xarajatlari majmui. Davlat byudjeti davlat ixtiyoridagi pul fondlarining taqsimlanishini bildirib, u davlat moliyasining bosh bo‘g‘ini hisoblanadi.

Davlat byudjeti tarkiban umumdavlat (yoki markaziy) byudjeti (mamlakat miqyosidagi umumiy daromadlar va xarajatlar yig‘indisi) va mahalliy (munitsipal) byudjet (hududiy tuzilmalar — o‘lka, viloyat, tuman va h.k. doirasidagi pul



Published: 28.03.2024
**Cite this article:** To’raboyev Kambarali Kodirovich, Xolmirzayev Doniyorjon (2024). Davlat budjetining o'ziga xos xususiyatlari. Emro Science and Education, 1(2). https://journal.emro.uz/public/maqola/179
*© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

daromadlari va xarajatlari)ga bo‘linadi. Ikki turdagi byudjetlar nisbati mamlakatning ichki sharoitiga bog‘liq bo‘ladi. Davlat jamiyatga ijtimoiy xizmatlar (milliy xavfsizlikni ta’minlash, jamoat tartibini saqlash, atrof-muhitni himoya qilish, nochorlarga yordam berish, aholiga bepul ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va b.) ko‘rsatadi va bularning barchasi xarajat talab qiladi. Byudjet daromadlari soliqlar, solikdan tashqari yig‘imlar, davlat zayomlaridan tushgan pul, davlat mul-kini sotishdan yoki ijaraga berishdan kelgan mablag‘lardan shakllanadi. Byudjet daromadining aholi jon boshiga hisoblangan miqdori mamlakatning byudjet salohiyati (potensiali) deb yuritiladi va bu byudjet daromadining umumiy hajmiga hamda aholining soniga bog‘liq. Byudjet xarajatlari uning daromadidan ortib ketsa, byudjet taqchilligi, ya’ni kamo-madi yuzaga keladi. Kamomad miqdori mamlakat yalpi millim mahsulotning 3—3,5 % ga teng bo‘lishi me’yoriy hisoblanadi. Byudjet kamomadining g‘oyat oshib ketishi va uni daromad bilan ta’minlash mumkin bo‘lmaganda byudjet xarajatlari qisqartiriladi. Markaziy, mahalliy davlat byudjetilari va davlat byudjetidan tashqari fondlar (davlatning muayyan maqsadli fondlari, maxsus maqsadli soliqlar, zayomlar, byudjetdan subsidiyalar hisobiga yaratiladigan maxsus fondlar) yig‘indisi davlatning yigma byudjetini tashkil etadi. Davlat byudjeti, odatda, joriy yilda kelgusi yil uchun tuziladi. Iqtisodiy beqarorlik sharoitida u chorak yoki yarim yilga tuzilishi ham mumkin. Davlat byudjetini huku-mat tuzadi va yuqori qonun chiqaruvchi organ (parlament) tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat byudjeti muayyan mamlakatdagi ijtimoiyiqtisodiy munosabatlarni ham ifodalaydi. Jamiyatning iqtisodiy tuzumi, davlatning tabiati va faoliyatiga qarab davlat byudjeti mohiyati, uning daromadlari va xarajatlari xususiyati hamda tarkibi turlicha bo‘ladi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda davlatning iqtisodiyot, ishlab chiqaruvchi, milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashga faol aralashuvi davlat byudjeti mavqeining oshishiga sabab bo‘ladi, milliy daromad davlat ixtiyorida yig‘iladi va uning byudjet orqali qayta taqsimlanadigan qismi ko‘payadi.

Hozirgi rivojlangan mamlakatlarda davlat byudjetining asosiy qismi soliqlar (fuqarolarning shaxsiy daromadlaridan undiriladigan shaxsiy daromad solig‘i, ish haqi fondiga soliq va korxonalar, korporatsiyalar foydasidan undiriladigan foyda solig‘i va b.) hisobiga shakllanadi (mas, 1987-yilda AQShda soliq tushumlari davlat byudjetining 98 % ini, Buyuk Britaniyada 96,7 % ini, Fransiyada 91,5 % ini tashkil qildi). AQSH federal byudjetidan qilinadigan xarajatlar orasida „da-romadlar darajasini ta’minlash“ (qariyalar, mehnatga layoqatsizlar, ishsizlar, nogironlar, tibbiy yordamga muhtojlar, boquvchisini yo‘qotgan oilalar va h.k.ga yordam ko‘rsatish) sarflari 40 %, milliy mudofaa xarajatlari (28—30 %) eng muhim o‘rinda turadi.

Hozirgi davrda oz sonli sotsialistax mamlakatlarda davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismi davlat sektori (ijtimoiy mulk)dan tushadigan mablag‘lardan, kooperativlar, xususiy korxonalardan, aholidan olinadigan turli soliqlardan hosil bo‘ladi va asosan xalq xo‘jaligini rivojlantirish hamda ijtimoiy-maishiy tadbirlarga sarflanadi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti respublika davlat byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi D.6., viloyatlar va Toshkent sh. mahalliy byudjetlarini birlashti-radi. O‘zbekistonning birinchi davlat byudjeti 1924—25-yillarda tuzilgan bo‘lib, uning hajmi 3,64 mln. so‘mni tashkil etgan edi.

O‘zbekistonda yangi boshlanayotgan yil uchun davlat byudjeti yil yakuni (dek. oyining oxiri)da O‘zR Oliy Majlisi sessiyasida tasdiqlanadi va qabul qilingan davlat byudjeti qonun kuchiga ega bo‘ladi hamda amaliyotga joriy etiladi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng davlat byudjetining shakllanish xususiyatlari boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o‘tish davridagi o‘zgarishlar bilan bogliq holda bordi.

O‘zbekistan Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining mutlaq ko‘pchilik qismi soliklar hisobiga olinmoqda.

1995-yilda O‘zbekistonda byudjet kamomadi 3 %, 1996-yilda 3,5 %, 1997-yilda 2,2 %, 2000-yilda yalpi ichki mahsulotning 1 % (32,8 mlrd. so‘m)ga teng bo‘ldi. Amalda bo‘lgan qonunchilikka muvofiq tashkil etiladigan byudjetdan tashqari jamg‘armalar (ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi, ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish jamg‘armasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi jamg‘armasi, yo‘l jamg‘armasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat mul-ki qo‘mitasi jamg‘armasi, mineral xom ashyo bazasini tak ishlab chiqarish fondi, o‘zini o‘zi boshqarish mahalliy organlarining maxsus fondlari)ning maqsadli yo‘nalishlarini saqlab qolgan holda, 1995-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasining birlashgan byudjetiga kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetida jami daromadlar va xarajatlar o‘zgarishlarida ishlab chiqarishning rivojlanishi, xo‘jaliklar va aholi daromadlarining o‘sishi asosiy ahamiyatga ega. O‘zbekistonda davlat byudjetini shakllantirish tartibi O‘zbekistan Respublikasining 2001-yil 1 yanvardan kuchga kirgan „Davlat byudjeti tizimi to‘g‘risida“ qonuni (2000-yil 14-dekabr)ga muvofiq olib boriladi.[5]

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.google.com/search?q=Davlat+budjetining+o%27ziga+xos+xususiyatlari&oq=davlat&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUqCAgAEEUYJxg7MggIABBFGCcYOzIGCAEQRRg5MgcIAhAAGIAEMg0IAxAAGIMBGLEDGIAEMg0IBBAuGK8BGMcBGIAEMgoIBRAAGLEDGIAEMgoIBhAAGLEDGIAEMgcIBxAAGIAEMg0ICBAuGK8BGMcBGIAEMgcICRAAGI8CqAIAsAIA&sourceid=chrome&ie=UTF-8
2. https://www.google.com/search?q=finance&oq=finance&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUqDggAEEUYJxg7GIAEGIoFMg4IABBFGCcYOxiABBiKBTIOCAEQRRgnGDsYgAQYigUyDAgCEAAYFBiHAhiABDIHCAMQABiABDIHCAQQABiABDIHCAUQABiABDIHCAYQABiABDIHCAcQABiABDIHCAgQABiABDIHCAkQABiABNIBCDEyMTdqMGo3qAIAsAIA&sourceid=chrome&ie=UTF-8

[5] https://uz.wikipedia.org/wiki/Davlat_byudjeti

3. https://www.google.com/search?q=moliyaviy+hisoboylar&oq=moliya&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUqBggAEEUYOzIGCAAQRRg7MgYIARBFGDsyDggCEEUYJxg7GIAEGIoFMgYIAxBFGDsyDAgEECMYJxiABBiKBTIGCAUQRRg9MgYIBhBFGD0yBggHEEUYPNIBBzgzOWowajeoAgCwAgA&sourceid=chrome&ie=UTF-8

# AKSIZ SOLIG‘INING MOHIYATI VA UNING OBYEKTI

**To’raboyev Kambarali Kodirovich**
TDIU, Mutaxassislik kafedrasi assistenti
**Xolmirzayev Doniyorjon**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon Fakulteti SST ta’lim yonalishi talabasi

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada aksiz solig’i haqidagi ma’lumotlar tahlil qilinadi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan aksiz to‘lanadigan tovarlar uchun ularning qo'shilgan qiymat solig‘i hisobga olinmagan holdagi (aksiz solig'i summasini o‘z ichiga olgan) qiymati yoki tovarning fizik hajmi soliq solish obyekti hisoblanadi.*

***Kalit so’zlar:****Aksiz,tovar,iste’mol,soliq ko’deksi.tadqiqot,obyekt.*

Aksiz solig'i bilvosita soliq turi bo'lib, tovar yoki xizmat narxiga ustama ko'rinishda undiriladi va pirovardida istc’molchi tomonidan to‘lanadi. Aksizlar davlatning soliqqa doir umumiy siyosati tarkibiy qismi hisoblanadi hamda budjct daromadini ko'paytirish, ba’zi tovarlar istc’mol qilinishi (tamaki, spirtli ichimliklar), ishlab chiqarish ayrim turlarining ko'paytirish tabiatni muhofaza qilishga salbiy ta ’siri oqibatida yuzaga keladigan ijtimoiy xarajatlar o‘mini qoplashda, shuningdek, avtomobil yo'llari qurish va saqlash xarajatlarini, boshqa xarajatlami, himoyalash manbayi sifatida, vatanimizdagi ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashda va hokazolar uchun qo'llaniladi. Aksiz hajmi qoida tariqasida, tovar qiymati bilan ham, uni ishlab chiqarish uchun qilingan mehnat sarfi bilan ham bog‘liq emas, balki davlatning soliq siyosatiga qarab belgilanadi. Ba’zi mamlakatlarda iste’mol solig'i, ya’ni chakana savdodagi har bir xarid uchun soliq, xizmat ko'rsatish sohasida oborot solig'i, tomoshaxonalardan undiriladigan soliq va boshqalar tobora ko'proq rivojlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida aksiz solig'i O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar, tashkilotlardan undiriladigan soliqlar to'g'risida» gi Qonuniga muvofiq qabul qilingan, lekin respublikamizda birinchi marotaba 1992-yildan boshlab joriy etilgan. «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida» aksiz solig'ining yangi umumiy qoidalari, aksiz stavkalari va to'lash tartibini ko'rsatib o'tilgan. Aksiz solig'i tovar qiymatining bilvosita soliq ko'rinishida budjetga to'lanadigan bir qismi bo'lib, u qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan bazada hisobga olinadi. O'zlari ishlab chiqargan va aksiz solig'i solinadigan tovarlami